



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMIDAGI INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs moliya va
moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganiladi. Bank xizmatlari sifati, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, to'lov tizimlari va moliyaviy inklyuziya bo'yicha ilg'or mamlakatlar – AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda bank infratuzilmasini takomillashtirish yo'lida xorijiy tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Muallif bank infratuzilmasining raqamlashtirilishi, zamonaviy to'lov tizimlari va moliyaviy xizmatlarga keng ommani jalb etish orqali mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni haqida xulosa chiqaradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, bank tizimi, infratuzilma, xorij tajribasi, raqamli texnologiyalar, moliyaviy inklyuziya, to'lov tizimlari, bank islohoti, innovatsion xizmatlar, moliyaviy barqarorlik.

Mamlakatimizda bank-moliya tizimini rivojlantirish, uning barqarorligini mustahkamlash, pul mablag'lari samarali aylanishiga erishish iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda zarur shartlardan biridir. Bu borada iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblangan tijorat banklarining faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bank tizimini rivojlantirishda xorijiy banklar tajribasini taxlil qilish asosida mamlakatimiz banklarida bank infratuzilmasini takomillashtirishga doir muammolar mavjudligi aniqlandi.



Ushbu muammolarni xal etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida 2017-2021-yillarda amalga oshiriladigan beshta ustuvor yo'nalishning joriy etilishi tizimni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Strategiyaning 124 bandida keltirilganidek, "Naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, shu jumladan, iqtisodiyot sohalarida to'lovlarning zamonaviy elektron shakllarini joriy etish va tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish, shuningdek, bankdan tashqari aylanishini qisqartirish" bugungi kunda bank tizimidagi dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Shu bilan birga bank infratuzilmasini takomillashtirishda asosiy e'tiborni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, internet tezligini oshirish, bank filiallari va xodimlarining soniga emas balki sifatiga e'tibor qaratish lozim. Yana asosiy e'tiborni tijorat banklari o'z mijozlarining yoshi va ish faoliyati ko'lamini tahlil qilgan holda xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan innovatsion xizmat turlarini joriy etish vazifalarini amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Yuqoridagi vazifalarning ijrosini ta'minlash banklarning barqarorligi, likvidliligi va xalqaro talablar asosida faoliyat yuritish mexanizmini ta'minlaydi/

Bank infratuzilmasini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar rossiyalik olimlar A.V. Kotov, E.F. Jukov, O.I. Lavrushin, G.P. Juravlevaning ishlarida kuzatishimiz mumkin. O.I.Lavrushin o'z ilmiy ishlarida bank infratuzilmasini tarkiblashga alohida e'tibor bergan. Shunisi e'tiborliki, uning qarashlari shu davr mobaynida hech ham o'zgarmagan. U bank infratuzilmasini ikkita blokka (ichki va tashqi bank infratuzilmasiga) ajratishni taklif etadi¹. Olimning ta'kidlashicha, ichki blokning vazifasi bankning ichki barqarorligini, tashqi blokning vazifasi esa bankning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasini ta'minlashdan iborat.

¹ Котов А.В. Формирование и развитие банковской инфраструктуры в России. - Саратов, 2004. С 14



Mazkur bo‘linishdan kelib chiqqan holda ichki blok qismlarini quyidagi tarzda guruhlash taklif etiladi:

1) kredit muassasining maqomi, u tomonidan bajarilayotgan operatsiyalar ro‘yxatini belgilovchi qonunchilik normalari;

2) qonunchilik hujjatlari talablari bajarilishi, omonatchilar va bank mijozlar manfaatlari, uning shaxsiy manfaati himoyalaniishi, umuman, uslubiy jihatdan ta‘minlab beruvchi operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha ichki qoidalar;

3) zamonaviy kommunikatsiya tizimlari asosida hisob yuritish, hisobot berish, tahlil qilish, ma‘lumotlarni kompyuter orqali qayta ishlash, bank faoliyatini boshqarish tizimi;

4) bankning boshqaruv apparati.

O.I. Lavrushin bank infratuzidilmasini ichki va tashqi bloklarga ajratgan holda guruhlagan bo‘lsa, A.V.Kotov esa aksincha “bank infratuzilmasi deb, bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib beruvchi va bank xizmatlarini yaratish va ularni iste‘molchilarga etkazib berishga ko‘maklashuvchi institutlar yig‘indisi” deb ta‘riflagan².

Bank infratuzilmasiga nisbatan shunga o‘xshash yondashuv iqtisodchi olim E.F.Jukov tahriri ostidagi “Pul, kredit, bank” darsligida O.I. Lavrushinning ilmiy qarashlariga mos ravishda izohlangan, ya‘ni bank infratuzilmasining to‘rtta yo‘nalishga-axborot, uslubiy, ilmiy va kadrlarga oid yo‘nalishlariga ajratgan³. Shuningdek o‘zbekistonlik olimlar Sh.R. Rajabbaev, V.A. Kotov va M.B. Xamidulin bank-moliya infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik muammolarini yoritgan bo‘lsa, U. Azizov, T. Karaliev, Sh. Abdullaeva, O.F. Aliqoriev banklarda innovatsion bank xizmat turlari va ularni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

² Деньги. Кредит. Банки: учеб. для вузов/ Под ред. Е.Ф.Жукова. М.ЮНИТИДАНА, 2003. 600 с.

³ Миллер Р.Л., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. - М.:ИНФРА-М, 2000. –244 С.



Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda iqtisodchi olimlarning bank infratuzilmasiga doir nazariy qarashlari yoritilishi bilan birga mamlakatlar o'rtasida bank xizmatlarining qiyosiy va statistik tahlillari asosida mavjud muammolar aniqlanib, bank infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari ishlab chiqilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida, qiyosiy tahlil, ekspert tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan hamda korellyatsion va regression taxlillar olib borilgan.

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan banklar borki, ularning barchasi mijozlar bazasini oshirish, aholini banklarga keng jalb etish, banklarda zamonaviy xizmat turlari va infratuzilmani rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bank infratuzilmasining rivojlanish tarixi rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 60-70 yillaridan boshlab shakllangan. Banklar tomonidan ilk plastik kartochkalar 1950 yillarga kelib joriy etilgan. Plastik kartalar tizimi XX asrning 60-yillariga kelib rivojlana boshladi. 1958 yilga kelib, Kaliforniyada joylashgan "Bank of America" va Nyu Yorkdagi "Chase Manhattan Bank" universal kredit kartalarini muomalaga chiqardi ⁴.

"Stanford Federal Credit Union" tomonidan 1994 yil ilk on-layn xizmatlar ko'rsatildi, 1995 yil "Presidential Savings Bank" tomonidan internet orqali hisob raqamlarini ochish xizmatlari tashkil etildi. AQSh aholisining bank interaktiv xizmatlaridan keng foydalanishi, mobil banking, internet banking, hisob schetlarini on-layn tarzida kuzatib borish va bankdagi hisob raqamidagi hisob schetlari haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishi uchun call- markazlar tashkil etildi.

Call-markazlari ko'rsatgan xizmatlariga to'lovlar yo'qligi, qulayligi, sutkasiga 24 soat operatorlarga murojaat etish imkoniyatlari mavjudligi, mijozlar bank hisob schetlarida amalga oshirgan operatsiyalarini boshqarish va nazorat

⁴ Григорьев Л. Мировой опыт развития безналичных платежных систем: ориентиры для России // Проблемы прогнозирования. – 2005. – №6. – С. 146-161.



qilish imkoniyati tug'ilganligi tufayli, mijozlarning ofisdan tashqari bank xizmatlariga ishonchi sezilarli darajada oshdi. AQSh aholisining asosiy qismi masofadan boshqariluvchi xizmat turlaridan foydalanishi natijasida banklarga tashrif buyuruvchilar soni 60 foizga pasaygan. Aholining asosiy qismi mobil ilovalar va raqamli bank "Digital Explorer", bank xizmat turlari "Online banking"dan 48 foiz to'lovlar qabul qilinsa, "Apple Pay", "NFS", "QR" kodlar yordamida 34 foiz, mobil xamyon orqali 17 foiz aholi to'lovlarni amalga oshiradi.

Yaponiya bankomatlari soni va xizmatlari jihatidan etakchi hisoblanib, 2012 yildan boshlab, biometrik ma'lumotlar asosida ishlovchi bankomatlar tizimi ishga tushirildi. 100 ming aholiga to'g'ri keluvchi bank filiallari soni Yaponiyada 34,10 ta, Buyuk Britaniya 25,8 ta, Hindistonda 14,7 ta to'g'ri keladi. Hindistonning "ICICIBank" mijozlar soni 25 mln.ga etdi. Hindistonning yirik banklari "Bank of Barada", "Bank of India" ning 3100 ta filiali, "Andhra Bank"ning 22 ta shaharda 1500 ta filiali mavjud, bankomatlar soni esa 50 mingtani tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan banklar 90 mln.dan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, AQSh, Koreya, Yaponiya singari mamlakatlar aholisi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi 55 foizdan 98 foizgachani tashkil etishi natijasida Italiyaning "Unicredit" guruhining 2018 yilga kelib 800 ta bo'limi qisqardi. 2012 yilda "Bank of America"ning filiallari soni 800 taga qisqardi. "JP Morgan" tahlilchilari bu borada olib borgan tadqiqotlarida investorlar xarajatlarni qisqartirgan holda kapitalni raqamli iqtisodiyotga yo'naltirishning afzalligi asoslandi. Shuningdek, Germaniyaning "Deutsche Bank" 1 mlrd. evroni 2018-2020 yillarda raqamli banking 72 xil turdagi xizmatlarini rivojlantirishga yo'naltirish rejalashtirgan. Bunga sabab, agar banklar raqamli bankingga investitsiya ajratmas ekan, ular asosiy daromadini 30-35 foiz yo'qotishi mumkin degan taxminlar ilgari surilgan⁵.

⁵ Халқаро валюта фонди маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси. <http://data.imf.org>



O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda bank infratuzilmasi 1990 yillarda Rossiya, Xitoy, Belarus kabi mamlakatlar bank tizimiga kirib kelgan. O'zbekiston, Qozog'istonda esa 2005 yildan boshlab zamonaviy bank xizmat turlari, texnologik rivojlanishi, shu bilan birga bankomatlar, plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish ommalashgan.



1-rasm. 2017 yilda o'tish iqtisodiyotidagi moliyaviy inklyuzivlikning rivojlanish xolati⁶

2017 yil ma'lumotlariga ko'ra katta yoshdagi 100 ming aholiga Rossiyada 168,7 ta, Ukrainada 88,5 ta, Xitoyda 81,4 ta, Qozog'istonda 74 ta, O'zbekistonda 21,6 ta bankomat to'g'ri kelmoqda. Katta yoshdagi 100 ming aholiga to'g'ri keluvchi bank muassasalari soni O'zbekistonda 36,1 ta, Rossiyada 30,2 ta, Xitoyda 7,7 ta bank xizmat qiladi. Aholiga jon boshiga to'g'ri keluvchi bank plastik kartochkalari Rossiya va Belorusiyada 2 tadan to'g'ri kelsa, Xitoy va O'zbekistonda 1.7 tadan to'g'ri kelmoqda. Markaziy Bank ma'lumotlariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi hududida 249 mln.dan ortiq plastik kartochkalardan foydalaniladi, 131640 ta naqd pul bankomatlari, 206852 ta ko'rsatilgan tovar va

⁶ Халкаро валюта фонди мълумотлари асосида муаллиф ишланмаси. <http://data.imf.org>



xizmatlarga to'lovlarni amalga oshiruvchi bankomatlar, 130 395 ta naqd pul to'lovlarini qabul qiluvchi bankomat va to'lov terminallari mavjud⁷ [9]. Banklarning internet-bankingdan tushadigan daromadi 5 foizdan 15 foizgacha etadi. Qozog'istonda innovatsion va raqamli texnologiyalar yordamida bank infratuzilmasi rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. 2017 yilda internet-banking va mobil bankingdan plastik kartalar yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar soni 58,9 mln.ga etib, 715,7 mlrd. tengeni tashkil etgan. Internetdan foydalanuvchilarning har 2-3 tasi mobil bankingdan foydalanuvchilar hissasiga to'g'ri kelib, bir plastik kartadan ikkinchi plastik kartaga pul o'tkazuvchilar 35 foizni tashkil etmoqda⁸. Xitoy banklari bugungi kunda aktivlari va kapitallashuvi darajasi bilan dunyoda etakchi banklardan biri hisoblanadi. 1991 yilda Xitoy Xalq banki o'zining "China Union Pay" milliy to'lov tizimini Visa va Master Card bilan hamkorlikda ishga tushirdi. Jami kartalar soni 5 mlrd.ga etib, Xitoyda aholi jon boshiga 3 tadan bank plastik kartasi to'g'ri kelmoqda. "China Union Pay" to'lov tizimi kartalaridan dunyoning 160 ta mamlakatida foydalanib, AQSh to'lov tizimi "Visa" va "Master Card"ning asosiy raqobatchilaridan biri hisoblanadi. Yevropada tijorat tashkilotlarining 70 foizi Xitoy milliy to'lov tizimi kartalarida to'lovlarni qabul qilmoqda⁹. Yuqorida tahlil qilingan mamlakatlarda bank infratuzilmasining rivojlanishi yuqori darajada texnologiyalar bilan ta'minlanganligi, turli xil ko'rinishdagi xizmat turlariga egaligi va innovatsion xizmat turlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. AQSh, Xitoy va Yaponiya mamlakatlarida bank infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi birinchi omil innovatsion texnologiyalarning bank tizimiga joriy etilgani bo'lsa, ikkinchi omil aholi moliyaviy savodxonligining yuqoriligi sanaladi. Ushbu davlatlar ilk bora bank tizimiga "raqamli bank"ni joriy etdi va ushbu tizimdan foydalanuvchilar soni 55 foizdan 90 foizgachani tashkil etmoqda. Xitoyda nafaqat banklar orqali

⁷ Центральный Банк Российской Федерации <http://www.cbr.ru>

⁸ kapital.kz/finance/66200/banki-perehodyat-na-distancionnye-kanalyraboty.html

⁹ The Goldman Sachs Group, Inc. Future of Finance: The Rise of China FinTech. August 7, 2017.



to'lov, balki mobil to'lov tizimi ham yuqori darajada rivojlangan. Xitoyda "Ali pay", "We chat pay", "Union Pay Quick Pass" to'lov tizimi bozorda etakchi bo'lib, "Ali pay"dan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lovlar 90 foizni tashkil etadi. Plastik kartochkalar orqali savdo tarkibida – kredit kartalar orqali to'lovlar hajmi 60 foizga, debit kartalar orqali to'lovlar 40 foizga etgan¹⁰. Rivojlangan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar tajribasi ko'rsatdiki, bank infratuzilmasining rivojlanishida asosiy e'tibor xizmatlarni va texnologiyani rivojlantirishga qaratilgan. Bank infratuzilmasining rivojlanishiga yo'naltirilgan investitsiyalar banklarga yangi texnologiyalarni jalb etish orqali yangi xizmat turlari kengayishi va mijozlar bazasi oshishiga olib kelgan. Yevropa va AQSh banklari investorlari o'z mablag'larining 91 foizini bank faoliyati samaradorligini oshirishda infratuzilmaga investitsiya kiritishga sarflamoqda¹¹. Bugungi kunda doimiy tarzda foydalanib kelinayotgan xizmat turlarining o'rnini raqamli banking xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini takomillashtirmas ekan, ularning daromadi va mijozlar soni keskin qisqarib borishini xorij tajribasi ko'rsatib berdi.

Xorij mamlakatlari bank-moliya infratuzilmasining rivojlanish holatini o'rganish jarayonida bergan xulosalarga tayanib, O'zbekiston bank-moliya infratuzilmasini rivojlantirishda quyidagilarni qo'llash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz;

- bank infratuzilmasini rivojlantirishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish lozim. Bunda hozirda tayyorlanayotgan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi" qonun loyihasiga "bank infratuzilmasi" tushunchasiga oid bandlarni qo'shish lozim. Bunda bank infratuzilmasi- normativ hujjatlar, bank xodimlari, bank xizmatlari, kreditlar, depozitlar, aholiga ko'rsatiluvchi moliyaviy xizmatlari, innovatsion texnologiyalar ni qamrab olishini nazarda tutish lozim;

¹⁰ The Goldman Sachs Group, Inc. Future of Finance: The Rise of China FinTech. August 7, 2017.

¹¹ Going global: payment insights to achieve grow the at scale



-aholining zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalanishi ko‘lamini kengaytirishda ularning moliyaviy savodxonligini oshirish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, viloyat teleradio tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ko‘rsatuvlar sonini kengaytirish, xizmat turlari va qulayliklar haqidagi axborot ta‘minotini kuchaytirish kerak. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishni maktab, kollej, litsey, oliy ta‘lim muassasalaridan boshlash lozim, bunda bank vakillari bilan birgalikda dars soatlarini tashkil etish kerak;

- banklarda raqamli banking xizmatlarini joriy etish, QIWI tizimi QR, NFS kodlari orqali to‘lovlarni amalga oshirishni ommalashtirishda ushbu xizmat turlarini amalga oshiruvchi POS-terminallar sonini ko‘paytirish, shuningdek “cashin” va “cash-out” bankomatlari sonini oshirish va “cash-in” bankomatlari yordamida hisob raqamlariga va bank plastik kartochkalariga mablag‘larni o‘tkazishni takomillashtirish lozim;

- O‘zbekistonda moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda moliyaviy supermarketlarni tashkil etgan holda aholiga moliyaviy xizmatlar paketini taqdim etish;

- bank xodimlarining samarali faoliyat yuritishida ularning malakasini oshirib, zamonaviy moliyaviy dasturlash tizimi kadrlarini keng jalb etish, ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilib borish lozim. Xodimlar mehnat faoliyati samaradorligini oshirishda baholash tizimini joriy etish kerak. Unga ko‘ra reyting tizimi joriy etilib, xodimning mehnat faoliyati reyting tizimi orqali baholanib, yuqori bahoga ega xodimni rag‘batlantirib turish lozim. Shunda o‘zaro raqobat rivojlanib, xodimlar o‘z ustida ishlay boshlaydilar.

- bank va bank xizmatlariga talab, qaysi turdagi xizmat turlardan foydalanish va qanday xizmat turlarini joriy etish ma‘qulligini aholi va banklar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali aniqlash va so‘rovnoma yakunlariga ko‘ra, banklar



tomonidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini izchil yoʻlga qoʻyish;

Oʻzbekistonda bank tizimini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohot va chora-tadbirlar kelgusida banklarimiz rivojlangan mamlakatlar banklari reyting koʻrsatkichlari darajasiga erishish, bank infratuzilmasi yanada rivojlanishi, aholi omonatlari bank depozitlariga jalb etilishi natijasida banklarning resurs bazalari kengayishi va aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi kreditlar dinamikasi oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini transformatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. PQ–3270-son. 2017-yil 16-sentyabr.

2. Singh, R., & Jain, A. Banking Infrastructure and Economic Development: A Global Perspective. – Springer, 2019.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – www.cbu.uz

4. Xojiyev B.X., Gʻulomov S.S., Abdurahmonov Q.X. Bank ishi. – T.: Iqtisodiyot, 2021.

5. World Bank. Global Financial Development Report 2022: Financial Inclusion. – Washington, DC: World Bank Group.

6. IMF (International Monetary Fund). Digitalization in Banking and Financial Services: Global Trends and Lessons. – 2022.

7. European Central Bank. Payment Statistics and Digital Finance Reports. – 2021–2023 yillar.

8. Lee, I., Shin, Y.J. Fintech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. – Business Horizons, 2018.

9. Asian Development Bank. Financial Infrastructure and Inclusion in Central Asia. – Manila, 2020.